



## SIRDARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI **BUYRUG'I**

6 may 2024 yil.

166-ICH-son

### **Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-240-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-vgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorini (ro'yxat raqami: 3383, 2022-yil 31-avgust) ijrosini ta'minlash maqsadida,

### **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 26-maydagi 90-son buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-240-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-vgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori (ro'yxat raqami: 3383, 2022-yil 31-avgust) ijro uchun qabul qilinsin.

**3.** Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4.** Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘i**



**Sh.Yakubov**